

# A.FR+MA

## Moliyaviy va boshqaruv hisobiga kirish

2024 yilda yagona imtihonga  
tayyorlanish uchun  
o'quv-uslubiy qo'llanma



## Mundarija


I. Imtihon dasturining tuzilmasi .....	2
II. O'quv dasturining maqsadi va uning asosiy bo'limlari.....	3
III. Yagona imtihonga kirish shartlari .....	4
IV. Malaka darajalari .....	5
V. Yagona imtihon formati .....	6
VI. A.FR A.FR modulining batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari.....	7
VII. A.MA modulining batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari .....	14

## I. Imtihon dasturining tuzilmasi

A.FR+MA yagona imtihoni AFS malakasini olishni xohlovchi talabgorlar uchun mo'ljallangan. U moliyaviy kasblarning kichik lavozimlarda ishlash uchun zarur bo'lgan vakolatni ikkita fan – moliyaviy hisobga kirish va boshqaruv hisobiga kirish tasdiqlaydi:

Moliyaviy hisobga kirish	Boshqaruv hisobiga kirish
<p>savdo kompaniyasining har qanday namunaviy o'tkazmasini tuzish</p> <p>u quyidagi moliyaviy hisobotlarga qanday ta'sir qilishini tushunish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• moliyaviy holat to'g'risida hisobot,</li> <li>• foyda va zarar to'g'risida hisobot va</li> <li>• kapital o'zgarishi to'g'risida hisobot.</li> </ul>	<p>boshqaruv hisobi maqsadlarida xarajatlarni bo'lishning turli usullarini tushunish</p> <p>ishlab chiqarish va xaridlar budgetlarini umumlashtirilgan ko'rinishda tayyorlash</p> <p>ishlab chiqarish xarajatlari va tushum bo'yicha asosiy og'ishlarni hisob-kitob va talqin qilish</p> <p>ma'lumotlarni tahlil qilish uchun qanday statistik ko'rsatkichlardan foydalanishini tushuntira olish.</p>

Shu bois imtihon va uning o'quv dasturi ikkita moduldan iborat – A.FR «Moliyaviy hisobga kirish» va A.MA «Boshqaruv hisobiga kirish».



A.FR+MA imtihonida moliyaviy va boshqaruv hisobi bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun sizga bazaviy matematika ko'nikmalari va Excel dasturidan foydalanish layoqati kerak bo'ladi. Siz quyidagilar haqida bilib olasiz:

- zarur matematika ko'nikmalari haqida – A.FR va A.MA modullari o'quv dasturlarining alohida bo'limlaridan, shuningdek A.MT «Moliyachi uchun matematika asoslari» qo'shimcha kursi dasturidan;
- Excel dasturidan foydalanishning talab qilinadigan ko'nikmalari haqida – A.XL «Moliyachi uchun Excel asoslari» qo'shimcha kursi dasturidan.

## II. O'quv dasturining maqsadi va uning asosiy bo'limlari

A.FR «Moliyaviy hisobga kirish» moduli bo'yicha imtihonga tayyorlanish dasturining maqsadi talabgorlarda moliyaviy hisobni tashkilotning kapitali, aktivlari va majburiyatlari o'zgarishini kuzatib borish mexanizmi sifatida to'liq tushunishni shakllantirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun modul dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olgan:

- Moliyaviy hisobning maqsadlari va vazifalari
- Hisobotning asosiy shakllari
- Ikkiyoqlama yozuv tizimi
- Hisobotni tayyorlash sikli
- Xaridlar sikli operatsiyalarini hisobga olish
- Sotuvlar sikli operatsiyalarini hisobga olish
- Zaxiralarni hisobga olish
- Asosiy vositalarni hisobga olish
- Hisoblashlarni hisobga olish
- Mulkdorlar bilan kapitalga doir operatsiyalarini hisobga olish
- Bazaviy matematika ko'nikmalari

A.MA «Boshqaruv hisobiga kirish» moduli bo'yicha imtihonga tayyorlanish dasturining maqsadi talabalarda tashkilotda boshqaruv hisobi asoslarini to'liq tushunishni shakllantirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun dastur quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olgan:

- Boshqaruv hisobining maqsadlari va vazifalari
- Xarajatlarni tasniflash va hisobga olish
- Boshqaruv hisobida moliyaviy natija
- Budgetlashtirish asoslari
- Og'ishlar tahlili asoslari
- Ma'lumotlar tahlili asoslari

Bazaviy matematika ko'nikmalari.

### III. Yagona imtihonga kirish shartlari

A.FR+MA imtihonini topshirish huquqiga ega bo'lish uchun siz:

- umumiy o'rta ma'lumotdan past bo'Imagan ma'lumotga ega bo'lishingiz;
- ACFP abituriyentiga – AFS malakasi talabgoriga aylanishingiz kerak.

acfp.uz saytida «A'zolik» bo'limida ACFP abituriyenti sifatida ro'yxatdan o'ting. Ro'yxatdan o'tgunga qadar ACFP ustavi, Axloq va professional xulq kodeksi va ACFPda ishtirok etish to'g'risida nizom bilan tanishib chiqing.

E'tibor bering! Ro'yxatdan o'tgan paytdan e'tiboran dastlabki 12 oy siz 1 BHM miqdorida har yilgi a'zolik badalidan ozod qilingansiz. Ammo, agar ushbu muddat mobaynida siz A.FR+MA imtihonidan muvaffaqiyatli o'tolmasangiz, uni keyingi 12 oyda topshirish huquqini saqlab qolish uchun 1 BHM to'lash kerak bo'ladi.

#### IV. Malaka darajalari

Moliya mutaxassisini malaka sohalarining har biri uchun turli darajadagi bir nechta imtihon nazarda tutilgan. Bu bilimlaringiz, qobiliyattingiz va ko'nikmalariningizni bosqichma-bosqich rivojlantirishga ko'maklashadi.

Birinchi pog'onada (A) siz fan bo'yicha asosiy konsepsiylar va tamoyillarni tushunishingizni tasdiqlaysiz.

Keyingi darajalarga ko'tarilgan holda, siz ancha murakkab va kichik biznesdan tortib transmilliy korporatsiyalar ko'lamida ish beruvchilar va mijozlar tomonidan talab qilingan malakani o'zlashtirasiz. Shu tariqa, imtihonlarni izchil topshirish moliya mutaxassisini uchun zarur malakani bosqichma-bosqich egallashni ta'minlaydi.

FR va MA malaka sohalari bo'yicha imtihonlar ro'yxati jadvalda keltirilgan:

Malaka sohasi	Imtihonlar/kurslar
<b>FR. Moliyaviy hisobot</b>	<b>D. FR Strategik moliyaviy hisobot</b> <b>S. FR Moliyaviy hisobot</b> <b>B. FR Moliyaviy hisob va hisobot asoslari</b> <b>A. FR Moliyaviy hisobga kirish – yagona imtihon moduli</b>
<b>MA. Boshqaruv hisobi</b>	<b>D. MA Samaradorlik va natijadorlikni boshqarish strategiyasi</b> <b>C. MA Biznes samaradorligi va natijadorligini boshqarish</b> <b>B. MA Boshqaruv hisobi asoslari</b> <b>A. MA Boshqaruv hisobiga kirish – yagona imtihon moduli</b>

## V. Yagona imtihon formati

A.FR+MA imtihoni kompyuterda testlar formatida o'tkaziladi. Imtihon davomiyligi – 3 soatu 15 daqiqa. Imtihon «yopiq kitob» bilan o'tkaziladi – har qanday materialdan foydalanish taqiqlangan.

Imtihon testlar shaklidagi 75 ta savoldan iborat – moliyaviy hisob bo'yicha

37 ta savol, boshqaruv hisobi bo'yicha 38 ta savol. Siz berilgan variantlardan bir yoki bir nechta javobni tanlashingiz yoki bo'sh joyni to'ldirishingiz kerak bo'ladi.

Har bir savol bir xil vaznga ega (2 ball). Shu tariqa, imtihonda olinishi mumkin bo'lgan eng yuqori natija 150 ballni tashkil etadi. O'tish balli – 90 ball (60%), ya'ni siz 75 ta savoldan 45 tasiga to'g'ri javob berishingiz lozim.

A.FR+MA imtihoni imtihon markazlarida kompyuterlarda o'tkaziladi va avtomatik tarzda tekshiriladi. Siz imtihon natijalari haqida u o'tkazilgan sanadan boshlab

10 ish kuni ichida acfp.uz saytidagi shaxsiy kabinetda bilib olasiz.

## VI. A.FR A.FR modulining batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari

### 1-bo'lim: Moliyaviy hisob va hisobotning maqsadlari va vazifalari

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quydagilarni bilishlari kerak:

- A. moliyaviy hisobni belgilash;
- B. moliyaviy hisob va moliyaviy hisobotni farqlash;
- C. moliyaviy hisobning asosiy maqsadini biznes-tashkilotlarda kapitalni o'lhash sifatida belgilash, biznesning asosiy tenglamasini tushuntirish;
- D. moliyaviy hisobning vazifalari tashkilot xo'jalik faoliyatining sodir bo'lgan faktlarini qayd etish va umumlashtirishdan iboratligini tushuntirish;
- E. kapitalni tashkilotga egalik qiluvchilarga to'lanishi lozim bo'lgan pul summasi sifatida belgilash;
- F. kapital nuqtayi nazaridan biznes-tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakllarini farqlash;
- G. xo'jalik birligining mustaqillik darjasini tamoyilini belgilash va qo'llashni bilish;
- H. O'zbekiston Respublikasida tashkilotlarga qo'llaniladigan hisobotlar tizimlarini sanab o'tish va ta'riflash;
- I. moliyaviy hisobot foydalanuvchilarini belgilash;
- J. moliyaviy hamda hisob va hisobotning boshqa turlarining maqsadlarini solishtirish (shu jumladan boshqaruv hisobi va hisobotining).

### 2-bo'lim: Hisobotning asosiy shakllari

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quydagilarni bilishlari kerak:

- A. foya va zarar to'g'risida hisobot va moliyaviy holat to'g'risida hisobot birgalikda qanday moliyaviy hisobning maqsadlariga erishishga imkon berishini tushuntirish;
- B. moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzilmasini tushuntirish;
- C. hisob tenglamasini tushuntirish;
- D. ikkiyoqlama yozuv tamoyillarini tushunish va ularni moliyaviy hisobotlar darajasida operatsiyalar yozuviga nisbatan qo'llashni bilish;
- E. moliyaviy holat to'g'risida hisobotni seksiyalarga bo'lish zaruriyati va tamoyillarini tushuntirish (uzoq muddatli va aylanma aktivlar, uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlar, xususiy kapital);
- F. aktivni belgilash (nazorat qilish va egalik qilish o'rtasidagi farqsiz), aktivni yaratuvchi xarajatlar va xarajatlarni yaratuvchi xarajat o'rtasidagi farqni ta'riflash;
- G. majburiyatni tashkilotning har qanday tashqi kontragentga qarzi sifatida belgilash, egalik qiluvchilar bundan mustasno;

- H. foya va zarar to'g'risida hisobotdan foydaning turli darajalarini solishtirgan holda, foya va zarar to'g'risida hisobot tuzilmasini tushuntirish (yalpi, operatsion, soliqlar to'langunga qadar foya va yil uchun foya);
- I. xarajatlarni foya va zarar to'g'risida hisobotning turli moddalariga kiritish mezonlarini tushuntirish;
- J. yalpi marja (yalpi foya me'yori) va ustama formulalari o'rtasidagi farqni tushuntirish;
- K. daromadlarni aniqlash, daromad va pulning kelib tushishini farqlash;
- L. xarajatlarni aniqlash, xarajatlar va pulni sarflashni farqlash;
- M. bazaviy xo'jalik operatsiyalarini tegishli elementlar bo'yicha taqsimlash (aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlar).

### **3-bo'lim: Ikkijoqlama yozuv uchun schyotlar tizimini qo'llash**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quydagilarni bilishlari kerak:

- A. moliyaviy hisob va hisobot tizimida tashkilot buxgalterining roli va rahbariyatining rolini tushuntirish;
- B. schyot tushunchasini tushuntirish va aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajat schyotlarida operatsiyalarini to'g'ri yozish;
- C. tashkilot xo'jalik operatsiyalarining ikkiyoqlama yozuvi uchun schyotlar tizimini qo'llash;
- D. bosh kitobni tashkilot schyotlarining yig'indisi sifatida belgilash;
- E. kassa daftaringin bosh kitobdan alohida mavjud bo'lishi zaruriyatini tushuntirish;
- F. asosiy buxgalteriya boshlang'ich hujjatlarining funksiyalarini ta'riflash (schyotlar, dalolatnomalar, yuk xatlari va h.k.);
- G. boshlang'ich qiymat konsepsiyasini tushuntirish va xo'jalik operatsiyalarini baholashga nisbatan boshqa ehtimoliy yondashuvlarni sanab o'tish;
- H. moliyaviy hisobning asosiy maqsadiga erishish uchun hisoblash tamoyilini qo'llash zaruriyatini tushuntirish.

### **4-bo'lim: Hisobotni tayyorlash sikli**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quydagilarni bilishlari kerak:

- A. aylanma-saldo qaydnomasini tayyorlash va uning maqsadlarini tushuntirish;
- B. har qanday davr uchun aylanma-saldo qaydnomasidan foya va zarar to'g'risida hisobotlar va moliyaviy holat to'g'risida hisobotlarni tayyorlash (ya'ni kiruvchi qoldiqlarni kiritgan holda);
- C. MHXS uslubiyati bo'yicha moliyaviy holat to'g'risida hisobotning real schyotlarini qanday yopish va balanslashni tushuntirish;

- D. MHXS uslubiyati bo'yicha foyda va zarar to'g'risida hisobotning nominal schyotlarini qanday yopishni tushuntirish;
- E. davr uchun kapital schyotlarini yopish bo'yicha o'tkazmalar siklini tayyorlash;
- F. tashkilot schyotlar rejasining zarur bo'lgan eng kam tuzilmasini tushuntirish (shu jumladan davrni yopish uchun kerak bo'lgan texnik oraliq schyotlar);
- G. hisobot va hisobotni tayyorlashning vaqtinchalik kontekstini va hisobot sanasidan keyin olingan axborot (inventarizatsiya va h.k.) hisobotni tayyorlash uchun qay tarzda muhim bo'lishi mumkinligini tushuntirish.

#### **5-bo'lim: Xizmatlar va tovarlar xaridlari sikli operatsiyalarini hisobga olish**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. qaysi bosqichda xaridlar xo'jalik operatsiyasini moliyaviy hisobda aks ettirish talab qilinishini tushuntirish;
- B. pul mablag'lari bilan darhol to'lovni amalga oshirish bilan tovarlar va xizmatlar xaridlari operatsiyalarini yozish (kreditorlik qarzi va/yoki bo'naklar schyotini chetlab o'tgan holda);
- C. kreditorlik qarzi schyotidan foydalangan holda to'lovni kechiktirish bilan tovarlar va xizmatlar xaridlari operatsiyalarini yozish, shu jumladan kreditorlik qarzini so'ndirish;
- D. berilgan bo'nak schyotidan foydalangan holda oldindan to'lov bilan tovarlar va xizmatlar xaridlari operatsiyalarini yozish, shu jumladan tovar yoki xizmatni olish va berilgan bo'nak schyotini yopish;
- E. tovarlarni qaytarish va yetkazib beruvchi tomonidan yetkazib berilgan tovarlar uchun pul mablag'larini qaytarish operatsiyalarini yozish (agar ular avval to'langan bo'lsa);
- F. yangi xaridlar, qaytarishlar va yetkazib beruvchilarga to'lovlari, shuningdek yetkazib beruvchilardan pulning qaytarilishi hisobiga kreditorlik qarzi (va berilgan bo'nak) schyoti bo'yicha qoldiqlar harakatining mantig'ini tushuntirish;
- G. kreditorlik qarzi va/yoki bo'naklarning yuzaga kelishi asosiga hisoblash tamoyili kiritilganligini tushuntirish;
- H. yakka tartibda yetkazib beruvchilar schyotlarini alohida-alohida hisobga olish zaruriyati va natijada, alohida xaridlar kitobi zaruriyatini tushuntirish.

#### **6-bo'lim: Sotuvtar sikli operatsiyalarini hisobga olish**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. xizmatlar hamda tovarlar uchun pul mablag'lari bilan darhol to'lovni amalga oshirish bilan sotish operatsiyalarini yozish (debitorlik qarzi va/yoki bo'naklar schyotini chetlab o'tgan holda);
- B. xizmatlar hamda tovarlar uchun debitorlik qarzi schyotidan foydalangan holda to'lovni kechiktirish bilan sotuvtar operatsiyalarini yozish, shu jumladan xaridorlar tomonidan debitorlik qarzining so'ndirilishi;

- C. olingan bo'nak schyotidan foydalangan holda oldindan to'lov bilan sotuvtalar operatsiyalarini yozish, shu jumladan tovar yoki xizmatni yetkazib berish va olingan bo'nak schyotini yopish;
- D. tovarlarni qaytarish va yetkazib berilgan tovarlar uchun xaridorga pul mablag'larini qaytarish (agar avval ular to'langan bo'lsa) operatsiyalarini yozish;
- E. yangi sotuvtalar, sotuvlarning qaytarilishi va xaridorlardan tushumlar, shuningdek xaridorlarga pulni qaytarish hisobiga debtorlik qarzi (va olingan bo'nak) schyoti bo'yicha qoldiqlar harakati mantig'ini tushuntirish;
- F. debtorlik qarzi va/yoki bo'naklarning yuzaga kelishi asosiga hisoblash tamoyili kiritilganligini tushuntirish;
- G. prinsipal bilan hisob-kitoblarni kiritgan holda, agentning nuqtayi nazaridan to'lovnii kechiktirish bilan agentlik sotuvtalar operatsiyalarini yozish;
- H. prinsipal bilan hisob-kitoblarni kiritgan holda, agentning nuqtayi nazaridan oldindan to'lov bilan agentlik sotuvtalar operatsiyalarini yozish;
- I. tushum (asosiy faoliyatdan olingan daromad) va boshqa daromadlar o'rtasidagi farqni tushuntirish;
- J. yakka tartibda xaridorlar schyotlarini alohida-alohida hisobga olish zaruriyati va natijada, alohida sotuvtalar kitobi zaruriyatini tushuntirish;
- K. yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitob operatsiyalarini yozish.

## **7-bo'lim: Zaxiralarni hisobga olish**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. zaxiralarni belgilash va ularni aktivlar sifatida tasniflash;
- B. aktiv sifatida zaxiralar va sotuvtalar tannarxi o'rtasidagi farqni tushuntirish (savdo kompaniyasi misolida);
- C. zaxiralarni partiyalar bo'yicha va davriy hisobga olish usullarini farqlash, ikkala usul uchun zaxiralarning kelib tushishi va chiqib ketishi operatsiyalarini yozishni bilish;
- D. yangi xaridlar, jo'natishlar, shuningdek tovarni yetkazib beruvchilarga qaytarish va xaridorlar tomonidan tovarning qaytarilishi hisobiga savdo kompaniyasining zaxiralarini schyoti bo'yicha qoldiqlar harakati mantig'ini tushuntirish;
- E. zaxiralarning boshlang'ich qiymati shakllanishining umumiy tamoyillarini tushuntirish.

## **8-bo'lim: Asosiy vositalarni hisobga olish**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. asosiy vositalarni belgilash va ularni aktivlar sifatida tasniflash;
- B. hisoblash tamoyilini asosiy vositani tan olish va amortizatsiyani hisobga olish uchun asos sifatida ko'rsatish;
- C. amortizatsiya hisoblashni boshlash payti misolida hisoblash tamoyili va daromadlar va xarajatlarni qiyoslash tamoyilini farqlash;
- D. tugatish qiymatini belgilash;
- E. boshlang'ich qiymat, amortizatsiya va jamg'arilgan amortizatsiya schyotlarini farqlash;
- F. amortizatsiyani chiziqli usul bilan hisoblab chiqarish va qanday vaziyatlarda ushbu usul eng o'rinli ekanligini tushuntirish;
- G. amortizatsiyani qoldiqni kamaytirish usuli bilan hisoblab chiqarish (berilgan amortizatsiya me'yorida) va qanday vaziyatlarda ushbu usul eng o'rinli ekanligini tushuntirish;
- H. amortizatsiyani qiymatni mahsulotlar hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish usuli bilan hisoblab chiqarish va qanday vaziyatlarda ushbu usul eng o'rinli ekanligini tushuntirish;
- I. amortizatsiyani bosh kitobning tegishli schyotlarida yozish;
- J. qanday hollarda amortizatsiya hisoblash o'rinsiz ekanligini tushuntirish;
- K. chiqib ketishdan tushum va asosiy vositaning chiqib ketishidan olingan moliyaviy natijani farqlash va chiqib ketishdan olingan moliyaviy natijani hisoblash;
- L. chiqib ketishdan olingan moliyaviy natijani aks ettirgan holda, asosiy vositaning chiqib ketishi operatsiyalarini yozish;
- M. asosiy vositalarning yangi xaridi, shuningdek asosiy vositalarning chiqib ketishi hisobiga asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati schyoti bo'yicha qoldiqlar harakatining mantig'ini tushuntirish;
- N. asosiy vositalarning yangi xaridi, shuningdek asosiy vositalarning chiqib ketishi hisobiga asosiy vositalarning jamg'arilgan amortizatsiyasi schyoti bo'yicha qoldiqlar harakatining mantig'ini tushuntirish.

## **9-bo'lim: Hisoblashlarni hisobga olish**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quydagilarni bilishlari kerak:

- A. hisoblash tamoyilini hisoblashlarni (akkruallarni) aks ettirish uchun asos sifatida ko'rsatish;
- B. kreditorlik qarzi va hisoblashlar o'rtaqidagi farqni tushuntirish;
- C. hisoblashlarni va ularni storno qilishni yozish;
- D. hisoblashlar va ularni storno qilishning tashkilotning foydasiga ta'sirini tushuntirish;
- E. hisoblashlarni o'z vaqtida aks ettirish uchun tashkilotning axborot tizimiga qo'yiladigan talablarni sanab o'tish.

## **10-bo'lim: Mulkdorlar bilan kapital operatsiyalarini hisobga olish**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quydagilarni bilishlari kerak:

- A. mulkdorning kapital bilan bevosita operatsiyalarining tashkilot foydasiga ta'sirining mavjud emasligini tushuntirish;
- B. yakka tartibdag'i tadbirkorlar tomonidan badallar kiritilishi va kapitalning olinishini yozish;
- C. aksiyaning nominal narxi va uni chiqarish narxini farqlash;
- D. aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan aksiyalarning dastlabki va keyingi chiqarilishini, shu jumladan aksiyalarning nominal qiymatidan yuqori narxda chiqarilishini yozish;
- E. aksiyadorlik kompaniyasi kontekstida "kiritilgan kapital" va ishlab topilgan taqsimlanmagan foydani alohida-alohida hisobga olish zaruriyatini tushuntirish;
- F. dividendlarni hisobga olish va ularning taqsimlanmagan foya va davr uchun foydaga ta'sirini farqlash;
- G. hisoblangan va to'langan dividendlarni farqlash;
- H. davr uchun foya yoki zarar, shuningdek hisoblangan dividendlar hisobiga taqsimlanmagan foya schyoti bo'yicha qoldiqlar harakati mantig'ini tushuntirish;
- I. alohida xususiy kapitalning o'zgarishi to'g'risida hisobotning foydasini tushuntirish va uning komponentlarini sanab o'tish.

## 11-bo'lim: Matematika ko'nikmalari

Dasturning barcha bo'limlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. bitta noma'lum bilan chiziqli tenglamalarni yechish;
- B. sonlarni butun songacha, shuningdek verguldan keyin bitta yoki ikkita belgigacha yaxlitlash usullarini qo'llash.

## VII. A.MA modulining bat afsil o'quv rejasи va o'quv maqsadлari

### 1-bo'lim: Boshqaruv hisobining maqsadлari va vazifalari

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quydagi larni bilishlari kerak:

- A. boshqaruv hisobi tushunchasi va uning tashkilot uchun ahamiyatini belgilash;
- B. boshqaruv hisobi va moliyaviy (buxgalteriya) hisobni, shu jumladan rasmiy tartibga solish nuqtayi nazaridan farqlash va qiyoslash;
- C. boshqaruv hisobida foydalilanidigan operativ, taktik va strategik axborotni farqlash;
- D. boshqaruv hisobining tashkilotning barqaror rivojlanishidagi rolini belgilash.

### 2-bo'lim: Xarajatlarni tasniflash va hisobga olish

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quydagi larni bilishlari kerak:

- A. xarajatlarni hisobga olish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini shakllantirishning muhimligini tushuntirish;
- B. xarajatlarni ishlab chiqarish va ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lmagan xarajatlarga ajratish va bunday ajratishning zaruriyatini tushuntirish;
- C. ishlab chiqarish tannarxi va to'liq tannarxni farqlash va ularning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi rolini tushuntirish;
- D. ishlab chiqarish xarajatlarini bevosita va qo'shimcha xarajatlarga ajratish va mahsulot tannarxini shakllantirish uchun bunday ajratishning zaruriyatini tushuntirish;
- E. ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy elementlarini belgilash: bevosita materiallar, bevosita mehnat, qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari;
- F. ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lmagan xarajatlarning asosiy elementlarini belgilash: realizatsiya qilish xarajatlari, umumxo'jalik xarajatlari, moliyaviy xarajatlar, moliyaviy natijadan olinadigan soliqlarni belgilash;
- G. xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarga ajratish va bunday ajratishning zaruriyatini tushuntirish;
- H. xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarga ajratishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan amaliy murakkabliklarni tushuntirish: doimiy xarajatlarning pog'onama-pog'ona o'zgarishini, ayrim xarajat turlarining yarim o'zgaruvchi xususiyatini belgilash;
- I. doimiy xarajatlar, ishlab chiqarish birligi va hajmlariga o'zgaruvchi xarajatlar asosida umumiyl ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblab chiqarish;
- J. ishlab chiqarish hajmi, birlik uchun o'zgaruvchi xarajatlar, doimiy xarajatlarning bitta yoki bir vaqtning o'zida bir nechta o'zgarishida umumiyl xarajatlarning o'zgarishini hisoblab chiqarish.

### **3-bo'lim: Boshqaruv hisobida moliyaviy natija**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. boshqaruv hisobida namunaviy moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotning mazmunini tushuntirish;
- B. hisobot davri uchun ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi va realizatsiya qilingan mahsulot tannarxini solishtirib ko'rish;
- C. ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi uni ishlab chiqarish davrida, realizatsiya qilingan mahsulotning tannarxi esa – sotish paytida shakllanishini tushuntirish;
- D. yalpi foydani hisoblab chiqarish va tushuntirish;
- E. realizatsiya qilishdan olingan marjinal foydani hisoblab chiqarish va tushuntirish;
- F. boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mahsulot birligiga marjinal foya qiyomatining muhimligini tushuntirish;
- G. yalpi foydani tushum va realizatsiya qilingan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi farq sifatida tushuntirish;
- H. marjinal foya hisob-kitobi xarajatlarni o'zgaruvchi va doimiy xarajatlarga ajratish, yalpi foya hisob-kitobi esa – xarajatlarni ishlab chiqarish va ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xarajatlarga ajratishga asoslanganligini tushuntirish;
- I. operatsion foydani tushum va ishlab chiqarishga, realizatsiya qilishga va korxonani boshqarishga operatsion xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida tushuntirish va hisoblab chiqarish hamda marjinal va operatsion foya o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish;
- J. realizatsiya qilish narxi, realizatsiya qilish hajmi, birlik uchun o'zgaruvchi xarajatlar, doimiy xarajatlarda bitta yoki bir vaqtning o'zida bir nechta o'zgarishlar bo'lganda foya ko'rsatkichlarining o'zgarishini hisoblab chiqarish.

### **4-bo'lim: Budgetlashtirish asoslari**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. budgetning asosiy funksiyalarini sanab o'tish;
- B. tez o'zgaruvchan sharoitlarda ishlaydigan tashkilotlar uchun budgetni tayyorlashda asosiy muammolarni sanab o'tish;
- C. ishlab chiqarish tashkilotida budgetni tayyorlash bosqichlarining standart izchilligini tushuntirish va asosiy budget omili nima ekanligini tushuntirish;

- D. tashkilotlar ular asosida budgetni tayyorlaydigan me'yorni shakllantirishni tushuntirish;
- E. prognoz sotuvar va hisobot davrlari oxiriga talab qilinadigan qoldiqlar asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish budgetini tayyorlash;
- F. tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda talab bo'yicha foydalanish va hisobot davrlari oxiriga talab qilingan xom ashyo va materiallar qoldiqlari asosida xom ashyo va materiallar xaridlari budgetini tayyorlash;
- G. omborlarda zaxiralarning katta hajmini saqlashning afzalliklari va kamchiliklarini tushunish;
- H. mehnat unumдорлиги va tayyor mahsulot ishlab chiqarishning talab qilingan darajasi asosida bevosita mehnat xarajatlari budgetini tayyorlash;
- I. «aniq-muddatida» zaxiralarni boshqarish tizimini va uni muvaffaqiyatli qo'llashning tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va materiallar xaridlari budgetlariga ta'sirini tushuntirish;
- J. xom ashyo va materiallarda nuqsonning ulushi va bekor turib qolish vaqtini hisobga olgan holda bevosita materiallar va bevosita mehnat xarajatlari budgetlarini tayyorlash.

## **5-bo'lim: Og'ishlar tahlili asoslari**

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. budget va haqiqiy foya o'rtaсидаги og'ishlar tahlili budgetlashtirish dastaklaridan biri hisoblanishini tushuntirish;
- B. nazorat qilish, qiziqtirish va faoliyat natijalarini baholash uchun og'ishlar tahlilining ahamiyatini tushuntirish;
- C. ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha bazaviy og'ishlarni hisoblab chiqarish va talqin qilish: bevosita materiallar bo'yicha umumiyligi og'ishni, bevosita materiallar narxi bo'yicha og'ishni, bevosita materiallardan foydalanish hajmi bo'yicha og'ishni, bevosita mehnat xarajatlari bo'yicha umumiyligi og'ishni, bevosita mehnat stavkasi bo'yicha og'ishni, bevosita mehnat unumдорлиги bo'yicha og'ishni hisoblab chiqarish va talqin qilish;
- D. nima uchun xarajatlar bo'yicha umumiyligi og'ishlar haqiqiy ishlab chiqarish uchun budget xarajatlari va haqiqiy xarajatlar o'rtaсидаги farq sifatida aniqlanishini tushuntirish;
- E. realizatsiya qilish narxi bo'yicha foydaning og'ishi va realizatsiya qilish hajmi bo'yicha foydaning og'ishini hisoblab chiqarish va talqin qilish;
- F. ayrim og'ishlarning o'zaro bog'liqligi va og'ishlar tahliliga tizimli yondashuv zaruriyatini tushuntirish.

## 6-bo'lim: Ma'lumotlar tahlili asoslari

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng, talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. boshqaruv hisobi uchun ma'lumotlar statistik tahlilining muhimligini tushuntirish;
- B. ma'lumotlar to'plamining bazaviy ko'rsatkichlarini hisoblab chiqarish va tushuntirish: o'rtacha arifmetik, mediana, modani hisoblab chiqarish va talqin qilish;
- C. o'rtacha arifmetik va mediana uchun ma'lumotlar to'plamida ekstremal yuqori yoki past qiymatlar mavjudligining ta'sirini tushuntirish;
- D. realizatsiya qilingan mahsulotlar sonining standart og'ishini hisoblab chiqarish va talqin qilish;
- E. boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ikkita o'zgaruvchi o'rtaсидаги bog'liqliklarni aniqlashning muhimligini tushuntirish;
- F. ikkita o'zgaruvchi o'rtaсидаги bog'liqliknini ta'riflaydigan ko'rsatkichlarni hisoblab chiqarish va talqin qilish: kovariatsiya, o'zaro bog'liqlik koeffitsiyentini hisoblab chiqarish va talqin qilish;
- G. ikkita o'zgaruvchi o'rtaсидаги chiziqli bog'liqliknini eng kichik kvadratlar usuli va minimaks usuli bilan, shu jumladan umumiylar xarajatlar va ishlab chiqarish hajmi o'rtaсидаги bog'liqliknini hisoblab chiqarish va talqin qilish.

## 7-bo'lim: Matematika ko'nikmalari

Dasturning barcha bo'limlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. foizlar bilan hisoblashlarni bajarish;
- B. oddiy kasrlar bilan hisoblashlarni bajarish;
- C. sonlarni butun songacha, shuningdek verguldan keyin bitta yoki ikkita belgigacha yaxlitlash usullarini qo'llash.